
SO'X TUMANIDA "VATANPARVARLIK OYLI" DOIRASIDA TURLI MAVZULARDA TADBIRLAR TASHKIL ETILYAPTI



So'x tumanida "Vatanparvarlik oyligi" doirasida turli mavzularda tadbirlar tashkil etilyapti

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida "Vatanparvarlik" oyligi o'tkazilmoqda. Mazkur oylik doirasida bizning tumanimizda ham keng ko'lamli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Qizilqiyog mahallasi hududida joylashgan harbiy qismda o'tkazilgan tadbirda tuman hokimligi vakillari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mutasaddilari, umumta'lim muassasalar o'quvchilari ishtirok etishdi. Tadbir avvalida harbiylar bilan uchrashuv tashkil etildi va mazkur tadbirda so'z olgan tuman hokimi o'rinbosari Ilhom Abdumajidov oylikning asl maqsadi haqida ma'lumot berdi.

Tadbir doirasida zamonaviy milliy armiyamizning qudratini keng namoyon etgan harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi, psixologik treninglar o'tkazildi. O'tkazilgan vatanparvarlik tadbiri yosh avlod ko'nglida katta taassurot qoldirgani bilan ham ahamiyatli ekanligini alohida ta'kilash lozim.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



